

va muammolarga javoban yangicha yondashuv asosida o‘qitish davr talabidir. Ushbu yondashuv talabalarda diniy bag‘rikenglik madaniyatini, dinga nisbatan to‘g‘ri qarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi jamiyat a‘zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

* * *

Azamat Toshev,
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Millatlararo munosabatlar va xorijiy
mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi
raisi o‘rinbosari

MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASH – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Tarixdan ma‘lumki, mintaqamizda yashayotgan xalqlarni asrlar davomida shakllangan madaniyati, ma‘naviy-axloqiy an‘analari va umuminsoniy qadriyatlar hamda buyuk ajdodlarimizning bebaho tarixiy merosi birlashtirib turadi.

O‘zbekiston zamini ming yillar mobaynida xilma-xil millatlar va dinlar vakillari hamjihatlikda yashab, turli madaniyatlar bir-birini boyitgan makon bo‘lgani bois bag‘rikenglik xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

Shu bois yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillarining asosiy huquq va erkinliklarini ta‘minlash Yangi O‘zbekistonda uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashning fundamental asosi bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko‘z qorachig‘idek saqlash hamda mustahkamlash Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan nutqida ustuvor vazifa¹ etib belgilandi.

¹ Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамыз. 14.12.2016 йил. <https://president.uz/uz/lists/view/111>

Yangi O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, turli millat vakillarining ona tilini, madaniyati, an’analari, urf-odatlari va milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslar yaratilishi natijasida bugungi kunda 152 milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda.

Ta’kidlash lozimki, madaniy va ma’naviy merosni asrash, millatlararo tinchlik va totuvlikni saqlab turish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, xalqaro madaniy almashinuvni rag‘batlantirish, shuningdek “xalq diplomatiyasi” mexanizmi orqali xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda milliy madaniy markazlar muhim o‘rin tutadi.

Ko‘p millatli O‘zbekistonda millatlararo bag‘rikenglikni ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, milliy madaniy markazlar, do‘stlik jamiyatlari va diniy konfessiyalar vakillari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda har yili 16 noyabr – “Xalqaro bag‘rikenglik kuni”ga bag‘ishlab “Bag‘rikenglik haftaligi”ni o‘tkazilishi alohida e’tiborga loyiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi Qaroriga asosan O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazining tashkil etilishi tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni, millatlararo va dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlash, sivilizasiyalararo muloqotni kuchaytirishga ko‘maklashmoqda.

Madaniyatlar va an’analar xilma-xilligini hamda mintaqa davlatlari barqaror rivojlanishining zamonaviy jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadida 2020-yilning avgustida Toshkentda tashkil etilgan Markaziy Osiyo xalqaro instituti qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni har tomonlama kengaytirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2019-yil 15-noyabrda Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasining qabul qilinishi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tardi. Natijada milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida tashkil etilgan “Do‘stlik uylari”ga milliy madaniy markazlarning bepul asosda joylashtirilishi ularning etnomadaniy infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Milliy madaniy markazlar faoliyatiga oid qonunchilik takomillashtirilib, 2021- yilda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan 30-iyul sanasi “Xalqlar do‘stligi kuni” etib belgilanishi mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga zamin yaratdi. Hukumat qaroriga asosan 2021-yilda ta‘sis etilgan “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni O‘zbekistonda millatlararo do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan mahalliy va xorijlik jismoniy va yuridik shaxslarning mehnatini rag‘batlantirish imkonini berdi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida milliy madaniy markazlar va 16 ta diniy konfessiya faollari tomonidan “Yangi O‘zbekiston” majumasi hududida 2022-yilning 5-aprel kuni “Bag‘rikenglik bog‘i”ga asos solinishi yurtdoshlarimizning atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan bunyodkorligi ifodasidir.

“Deklarasiyalar muloqoti” xalqaro forumi yakunida 2022-yilning 19-may kuni dunyoning turli mintaqalaridan tashrif buyurgan tajribali huquqshunos, yetakchi dinshunoslar tomonidan qabul qilingan “Buxoro deklarasiyasi”ning joriy yil iyul oyida Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi 76-sessiyasining rasmiy hujjati sifatida e‘tirof etilishi jahonda diniy ma‘rifat g‘oyalari, bag‘rikenglik madaniyatini targ‘ib etish, millatlararo va dinlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2022-yilning sentyabr oyida Shanxay Hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlarining oliy darajadagi uchrashuvi arafasida Samarqand shahrida foydalanishga topshirilgan “Xalqlar do‘stligi va diniy bag‘rikenglik muzeyi” yurtimizda qaror topgan millatlararo va diniy bag‘rikenglik ildizlari, dinlararo muloqot madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Mamlakatimizda Abdurahmon Jomiy, Maxtumquli Firog‘iy, Abay Qo‘nonboyev, Aleksand Pushkin, Shota Rustaveli, Taras Shevchenko, Yakub Kolas, Chingiz Aytmatov kabi turli millatlar adabiyot namoyondalarining nomlari abadiylashtirilishi ushbu xalqlarning tarixi, madaniyati, ma‘naviy qadriyatlarini, an‘ana hamda urf-odatlarini har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilinib, nashr

etilganligi, shuningdek “Turkiy adabiyot durdonlari” nomli 100 jilddan iborat asarlar majmuasi chop etilganligi turli millatlar madaniy va tarixiy merosi bilan yaqindan tanishish, ularni ommalashtirilishga zamin yaratdi.

Yubiley sanalar munosabati bilan respublika milliy madaniy markazlarini Hukumat tomonidan, hududiy milliy madaniy markazlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan tabriklash amaliyoti joriy etildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida farmoyishlariga asosan O‘zbekiston rus madaniy markazi, “Slavutich” ukrain madaniyat markazi, “Wiedergeburt” O‘zbekiston nemis madaniy markazi, O‘zbekiston qozoq milliy madaniy markazi, O‘zbekiston qirg‘iz milliy madaniy markazi, O‘zbekiston turkman milliy madaniy markazi, O‘zbekiston turk milliy madaniy markazi, Toshkent shahar tatar hamda Toshkent shahar boshqird jamaot-madaniy markazlarining yubileylariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan doimiy muloqot va hamkorlikni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktyabrda Qaroriga asosan tasdiqlangan Vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi bu sohadagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tardi.

Millatlararo munosabatlar sohasidagi rivojlantirish, “xalq diplomatiyasi” orqali ikki tomonlana aloqalarni yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining xorijdagi turdosh tashkilotlar bilan 40 tadan ortiq hamkorlik memorandumini imzolandi.

Jamiyatda bag‘rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyati his-tuyg‘usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashda milliy madaniy markazlarning rolini yanada oshirish maqsadida millatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida yetakchi xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish asosida qonunchilikni takomillashtirib, “Milliy madaniy markazlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini ishlab chiqishni taklif qilaman.